

ABDULLA QAHHOR KOMEDIYALARINING SOTSIOLINGVISTIK TAHLILI

*Samarqand davlat pedagogika
instituti Tillar fakulteti O'zbek tili va
adabiyot yo'nalishi 3-kurs talabasi
Ung'alova Mashxura Akmal qizi*

Annotatsiya. Abdulla Qahhor komediyalarining sotsiologik tahliliga bag'ishlangan ushbu maqolamizda Abdulla Qahhor komediyalarida til va nutqda **barqaror qo'llanuvchi birliklar, variativlik hodisalari**, komediyalaridagi so'z, so'z birikmasi va gaplardagi **“ma'no ichida- ichki ma'no”, arxaizm-leksema, uzual ma'no va okkazonal ma'no** haqida fikr boradi. Hammamizga ayonki, maqolamizda yoritilmoqchi bo'lgan, yuqoridagi tahlil vositalarining nutqqa olib kirilishi shu bilan birga asarning til uslubida keng qo'llanilishi har bir shaxs nutqining jozibadorligi, asarning yanada jonli bo'lishini ta'minlaydi.

Shundan kelib chiqib, Abdulla Qahhor komediyalarining tilshunoslik, adabiyotshunoslik va sotsiologik nuqtayi nazaridan tahliliga e'tibor qaratildi.

Kalit so'zlar: Komediya, yozuvchi uslubi, barqaror birikmalar, iboralar, variativlik, uzual ma'no, okkazonal ma'no, arxaizm-leksema, ma'no ichida-ichki ma'no.

O'zbek adabiyotining tadrijiy taraqqiyotiga o'zining asarlari, qisqa so'zda teran ma'noli fikrlari bilan ulkan hissa qo'shgan, buyuk adib, adabiy tanqidchi, dramaturg, hikoyanavis, komedyanavis sifatida adabiyotshunoslikda etirof etilgan ijodkor Abdulla Qahhordir.

O'zbek adabiyotida biz Abdulla Qahhorni **“hikoyalar ustasi”** deb etirof etamiz! Shu bilan birgalikda komediyalar yaratishda, komediyalarining til uslubida ham mohiridir. Buning yaqqol dalili sifatida, “Shohi so'zana” komediyasi uchun 1952-yil Davlat mukofoti bilan taqdirlangan.

Ushbu maqolamizda “Og'riq tishlar”, “Paqir qo'mondonlari”, “Tobutdan tovush” komediyalari va “Ayajonlarim” pyesasini annotatsiyamizda keltirilganidek tilshunoslik, adabiyotshunoslik va sotsiologik jihatdan tahlil qilamiz.

Variativlik deb, bir xil ma'noga ega bo'lgan lisoniy belgilarning shaklidagi, tashqi ko'rinishidagi nomutanosiblikka, har xillikka aytiladi.

Variativlikning 3 turi mavjud :

1. Lisoniy variativlik (bir tilning ichida fonetika, leksika, grammatika yoki

uslubiy ko‘rinishlarning turlicha shaklda qo‘llanishidir).

2.Ijtimoiy variativlik ((tilning jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlariga (yosh,jins,kasb,ta’lim darajasi va ijtimoiy mavqe)qarab turlicha qo‘llanishidir)).

3.Gender (Ayol va erkak nutqining)variativligi (erkak va ayollar nutqining strukturaviy,uslubiy va kommunikativ farqlanishi).

Abdulla Qahhor komediyalarida variativlikning turlarini tahlil qilamiz.

Uzual ma’no leksemaning mazmun mundarijasida bor bo‘lgan leksik ma’nodir.U til egasi bo‘lgan xalq tomonidan tan olingan ,ko‘pchilikka tushunarli bo‘lgan ma’no hisoblanadi

Okkazonal ma’no leksemaning tildagi ma’nosiga xos bo‘lmagan ,ayrim shaxsning (muallifning) nutqiy vaziyatdan kelib chiqib ,shu leksema mazmuniga yangicha “**tus**” berishi natijasida yuzaga keltirilgan sun’iy ma’nodir.

Arxaizm-leksema hozirgi paytda mavjud bo‘lgan voqelikning eskirgan nomi.

Abdulla Qahhor ustozimiz yaratgan har bir asarni o‘qir ekanmiz,iboralardan, o‘xshatishlardan joy-joyida mahorat bilan foydalanganlarki,ularsiz asarlarini tasavvur qila olmaymiz,asarlaridan foydalangan ibora va o‘xshatishlarning o‘rnini almashtirish yoki boshqa so‘z bilan o‘zgartirish mumkin emas..!

Abdulla Qahhor ustozimizning bir iborasi shoir va adiblar o‘rtasida mashhur bo‘lib ketgan edi: “Asar yozayotganda mix qilib qoqib qalpog‘ini olib tashlang.Toki hech kim sug‘urib ololmasin!”,-deb aytgan ekanlar.

“Og‘riq tishlar” komediyasida Nasibaning nutqida : “Ko‘r hassasini bir marta yoqotadi”[1:36] degan ibora uchraydi.Bu komediyada o‘sha davrdagi amaldorlarning faoliyati Ahadjon Zargarov obrazi orqali yoritib berilgan.Asli amaldor bo‘lib o‘z farzandlarini yetim qilib boshqa ayol bilan yashirincha turmush qurib yashaydi.Bu obrazga shlyapali zamonaviy Xudoyorxon deya kinoyali o‘xshatish berilgan.

Nasibaxon ilmga intilgan qiz edi ,onasi orzuga berilib hali maktabda o‘qiydigan qizini “tish doktoriga” turmushga beradi.Boshida baxtli hayot oxirida esa tish doktori Zargarovning 2-ayoli bilan munosabat qurib ketadi.Bu asar orqali ayollarni ilmni tashlasangiz oxirida chiroyli yakun topmasligi,jamiyatdagi turli illatlarni,huddi insonning tishi og‘risa qanchalik azob beradi ,jamiyatdagi amaldorlarning o‘z kasbidan yaxshi narsalarga emas,o‘z manfaatlari uchun foydalanishi ,ilmsizlikning, boylikka ruju qo‘yishning oqibati yoritilgan.Har bir qilingan xato kelajakda dars bo‘lishi yoritilgan.

Bu komediyada “**tim**” arxaizm-leksemasi mavjud bo‘lib, hozirgi kundagi ma’nosi “yetim” deganidir.Bu komediya orqali so‘zning lug‘at boyligida yangi bir so‘zni o‘rgandim.

“Rozilikda ham rozilik bor” ,-ibora bo‘lib ,rozilikning ham ikki turi bor shindan aytilgan rozilik va majburlikdan aytilgan rozilik.

Bu komediyada yana bir arxaizm –leksema duch keldim,ya’ni qorovul

soʻzining **“jujur”** shakli bor ekan. Bu soʻz leksik variativlikka misol boʻladi.

“Ayajonlarim” pyesasida **“Sarjinday”** soʻzini asardagi okkazonallik jihatidan tahlil qilamiz. Asarda: “Gaplarni sarjinday tahlal tashladi”

Tahlil: Sarjin uzual maʼno jihatidan “matoli katta qop va yukyopkich” maʼnosi sof maʼno. Okkazonal maʼno bu asardagi misolda keltirilgan maʼnosi “ogʻir gap”.

Asarda gender variativlik alohida ahamiyat kasb etgan!

Ayollar nutqida kelinlarni chaqirish: “kelinposhsha”, “girgitton”

Soʻrashish: “esonmisiz”, “omonmisiz”

Qargʻish: “er boʻlmay qaro yer boʻlgur”,

Farzandni erkalab murojaat qilish: “Hoy, onang aylansin”, “aylanay”

Duo qilish: “Hudoyo umringizdan baraka toping” [1:2]

Kinoya: “Qanilar, xotin ustiga xotin olgan Ahadjon boy qanilar”

Gina: “shu gap oʻlgurni domlangga ayta qolmasang nima qilar edi”, “sizlarga nondan ham domla aziz-da”

Nolish ,istak: “mayli shunday boʻlsa ham sendan roziman”,

“Oʻgʻil koʻrmadimki, goʻrimga ikki ketmon tuproq tashlasa”,

“tovutim chiqqan kuni arvohimga bitta sham yoqsang bas” [1:7]

Bu misolimizdagi **“tovutim”** soʻzi **fonetik variativlikka** misol boʻladi toʻgʻri shakli **“tobutim”**

Ijtimoiy variativlik:

Shifokor nutqida: “miokardiostrafiya”

Erkaklar nutqida:

Jaxl: “Boyatdan beri aytmay-sanmi?”,

Yaqinlik: “ogʻaynim”

Tasdiq: “Durust, durust”

Abdulla Qahor ustozimizning har bir komediyasida ochiq mutoyibali haqiqat yozilgan. Bu komediyalarni oʻqigan har bir kitobxonning hayotga boʻlgan qarashi boʻlakcha boʻladi. Ustozimizning har bir asarini oʻqib yanglikni kashf etamiz hayotni chuqurroq anglay boshlaymiz.

“Har soʻzning oʻz joyi bor, har nuqtaning makoni”. (Sadʼiy Sheroziy) Bu shoh satrlar Abdulla Qahorning har bir asarlarida toʻlaonli oʻz ifodasini topgan.

Abdulla Qahhor ustozimiz asarlari orqali ona tilimizning naqadar yuksakligiga, tilimizning boyligiga guvoh boʻlamiz.

Bu asarlarning insonlar qalbidan chuqur joy egallashi ortida kuchli mehnat samarasi yotadi.

Yozuvchi qachon yozuvchi boʻlib tan olinadi, qachonki oʻzi yaratgan asarni his qilib yozsa, kitobxonga his qildiradi.

Yozuvchilik ,o‘zining ummon tug‘yonlarini zarhal qog‘ozga qalamla so‘zlardan surat chizmoqdir.

Abdulla Qahhorning so‘z bilan chizgan suratini qalam bilan chizilgan suratdanda teranroq anglash mumkin.

Abdulla Qahhor ustozimizning mahorati o‘zi aytganidek: “Yozuvchining mahorati shundaki, butun bahorni atigi chigitdek keladigan g‘o‘ra ichiga qamrab bera oladi”.

Adabiyotshunoslikda adabiyotshunoslar Abdulla Qahhorga shunday ta’rif beradi: “Abdulla Qahhor so‘zga xasis, fikrga saxiy san’atkor”

Yozuvchi ijodining o‘zbek ,rus va boshqa tillarda atroflicha tadqiq etilishi oqibatida tanqid va adabiyotshunoslik doirasida o‘ziga xos qahhorshunoslik tarmog‘i maydonga keldi

Abdulla Qahhorning adabiyotshunosligimizda o‘rni beqiyos!

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Норматов У.Абдулла Қаххорни англаш машаққати. Тошкент. “Университет”, 1999.
2. О‘tkir Hoshimov . “Daftar hoshiyasidagi bitiklar”-Toshkent, Global books. 2021. 320 bet
3. Abdulla Qahhor . “Og‘riq tishlar”, “Paqir qo‘mandonlar”, “Tobutdan tovush”, “Ayajonlarim” .www.ziyo.com kutubxonasi.